

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI,
RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA XUSUSIYATLARI**

Andijon davlat Pedagogika instituti v/b dotsent

Vaxabova O'g'iloy Tolibjonovna

Andijon davlat Pedagogika instituti talabasi

Odilbekova Mushtariybegim Olimjon qizi

Anotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishiga xos xususiyatlar, jumladan, bu davrda bolaning emotsional-idoraviy sohalari, aqliy faoliyati, nutq va muloqot ko'nikmalarining shakllanishi, o'yin faoliyatining ijtimoiylashtirishdagi roli hamda atrof-muhitga ta'sirining o'ziga xos jihatlari aynan mana shu maqoladan o'rin olgan. Ularni har tomonlama ilmiy va asosli tasvirlashga harakat qildik.

**PSYCHOLOGY OF PRESCHOOL CHILDREN, STAGES OF
DEVELOPMENT AND FEATURES**

Annotation: The specific features of the psychological development of preschool children, including the emotional and administrative spheres of the child, mental activity, the formation of speech and communication skills, the role of play in socialization, and the unique aspects of the impact on the environment, are presented in this article. We tried to describe them scientifically and reasonably.

**ПСИХОЛОГИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА, ЭТАПЫ
РАЗВИТИЯ И ОСОБЕННОСТИ**

Аннотация: В статье представлены особенности психологического

развития дошкольников, в том числе эмоционально-ведомственной сферы ребенка, психической деятельности, формирования речевых и коммуникативных навыков, роли игры в социализации, а также особенности воздействия на окружающую среду. Мы постарались описать их научно и аргументировано.

Kalit so'zlar (o'zbek tilida): maktabgacha yosh, bola psixologiyasi, emotsional rivojlanish, o'yin faoliyati, nutq rivoji, ijtimoiylashuv, psixologik yondashuv

Keywords (in English): preschool age, child psychology, emotional development, play activity, speech development, socialization, psychological approach

Ключевые слова (на русском языке): дошкольный возраст, психология ребенка, эмоциональное развитие, игровая деятельность, развитие речи, социализация, психологический подход

Shaxs psixologiyasining rivojlanishida bolalar psixologiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Inson psixologiyasining rivojida turli yosh inqirozlari orqali yetuk shaxs bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu inqirozlarning asosiy davrlaridan biri kichik yoshdagi bolalar psixologiyasidir. Kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi – inson hayotidagi dastlabki yillarda shakllanadigan psixik jarayonlar, shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy xatti-harakatlarni o'rganadigan yo'nalishdir. Bu davrda bola organizmi jadal rivojlanadi, ayni paytda psixik jarayonlar ham tez o'zgaradi. Maktabgacha yosh psixologiyasi nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab maktabgacha yoshdagi bolalar taraqqiyoti va faoliyatining psixologik tavsifi haqida ko'rib o'tsak bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yosh bolalik davrining katta qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy

individual xususiyatlar shaxsiy fazilatlar tarkib topa boshlaydi. Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi¹. Avvalo, bolaning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi ham yanada ortadi, uning o'yinlari va xatti-harakatlarida ham ijobiy o'zgarishlar bo'ladi. Bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. Maktabgacha yosh davridagi bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib rivojlanishiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning tanasi, xususan, oyoqlarining uzayishi tufayli gavdasidagi umumiy mutanosiblik o'zgaradi. Bu davrda oyoqlar ko'proq o'sadi. Biroq 6-7yoshdagi bolalarning suyaklari yaxshi qotmagan bo'ladi. Umuman uning organizmida yaxshigina o'zgarishlar bo'lishiga qaramay ular to'laqonli mustahkam va mukammal bo'lmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida ularning nerv sistemalarida bo'ladigan o'zgarishlar ham katta rol o'ynaydi. Bola bog'cha yoshiga yetguncha uning miyasi g'oyat tez rivojlanib, deyarli uch baravar ko'payadi. O'rtacha hisolaganda bu yoshdagi bolalar miyasi og'irligi 1100-1200g ga yetadi. 3-5 yoshli bola doimiy yordam va g'amxo'rlik talab qiladigan obyektidan oila hamda bolalar gurungining faol a'zosiga aylanadi. Ularning o'yin faoliyatida ham rivojlanishlar bo'lib, ularning quyidagicha psixologik xususiyatlari mavjud: a) o'yin mavzusi va sermazmunligi; b) bolalar o'yin faoliyatlarida milliy tuyg'uning aks etishi; c) o'yin faoliyati davomida vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lishi.² Aqliy rivojlanish bolada muayyan ketma-ketlikda yuz beradi. 3-4 yoshda bola asosan konkret obrazlar orqali fikrlaydi. 5-6yoshga kelib esa umumlashtirish, solishtirish, sabab-oqibat bog'liklarini tushunish qobiliyatlari shakllanadi. U o'zini boshqalarning o'rniga qo'ya olish ya'ni empatiya qobiliyatini rivojlantira boshlaydi.³

Barcha yoshdagi inqirozlarda ota-ona va oilaning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli maktabgacha yosh davrida oila va ota-onaning

¹ Vygotskiy L.S. "Psixologiya razvitiya rebenka". Moskva, 2003.

² Elkonin D.B. "Psixologiya detskoy igri". Moskva, 1978

³ Abdullaeva F. "Bola psixologiyasi". Toshkent, 2018.

e'tibori bolada xavfsizlik hissi, mehr va e'tibor ehtiyyini qondiradi va bu muhit bolani mustaqil hamda ijtimoiy faol bo'lishiga yordam beradi.⁴

Uch yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir ko'rsatish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishga, ayrim topshiriq va vazifalarni puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshda bolaning psixologik rivojlanishi nihoyatda murakkab va muhim jarayon hisoblanadi. Bu davrda bola hayotni o'rganadi, dunyo haqidagi tasavvurlari shakllanadi. Shuning uchun ushbu davrda pedagogik va psixologik yondashuvlar to'g'ri tanlangan bo'lishi, har bir bolaning individual xususiyatlariga hurmat bilan qaralishi zarur. Zero bolaning sog'lom psixologik rivoji – jamiyatning kelajagidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. "Psixologiya razvitiya rebenka". Moskva, 2003.
2. Elkonin D.B. "Psixologiya detskoy igri". Moskva, 1978.
3. Abdullaeva F. "Bola psixologiyasi". Toshkent, 2018.
4. Axmedova N. "Psixologiya asoslari". Toshkent, 2021.
5. Давлетшин Д.Ж. "Дошкольная психология". Казань, 2010

⁴ Давлетшин Д.Ж. "Дошкольная психология". Казань, 2010